

**"TANQIDIY FIKRLASH KOMPETENSIYASI SHAKLLANTIRISH:
PEDAGOGLARDAN MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA"**

Djumanova Dilyara Masxutovna

**Toshkent shahridagi Bucheon universiteti
maktabgacha ta'lim kafedrası katta
o'qituvchisi**

Annotatsiya. Maqolada pedagoglarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishning samaradorlik omillari tahlil qilinadi. Yo'naltirilgan yondashuv, vizual-intellektual metodlar ushbu jarayonning muhim shartlari sifatida ko'rsatiladi. Pedagoglarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish usullarini maqsadli integratsiya qilish ularning professional kompetensiyasini oshirishi hamda maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi. **Tayanch iboralar:** kompetensiya, maktabgacha yoshdagi bolalar, **tanqidiy fikrlash, ta'limiy faoliyat, dalillash, anglash, refleksiya, pedagog, metod, tahlil, faollashtirish, pedagog, shakllantirish.**

Аннотация. В статье анализируются факторы эффективности формирования компетенции критического мышления у педагогов, направленный подход, интеллектуальные методы. Целенаправленная интеграция методов развития критического мышления способствует повышению профессиональной компетентности педагогов и обеспечивает формирование критического мышления у детей дошкольного возраста. **Ключевые слова:** компетенция, дошкольник, критическое мышление, образовательная деятельность, аргументирование, осмысление, метод, анализ, активизация.

Abstract. The article analyzes the effectiveness factors of developing critical-thinking competence in educators. A guided approach, the use of visual and intellectual methods, and systematic reflection are identified as key conditions. The study highlights that the targeted integration of critical-thinking development methods enhances teachers' professional competence and supports the formation of critical thinking in preschool children. **Keywords:** competence, critical thinking, preschool, education, argumentation, challenge, comprehension, reflection, method, analysis.

Zamonaviy ta'lim makoni yuqori darajadagi murakkablik, axborotga bo'ylik va o'zgarishlar intensivligi bilan ajralib turadi. Bunday sharoitda pedagoglarning tanqidiy fikrlashi, puxta asoslangan qarorlar qabul qilishi hamda ta'lim jarayonini moslashuvchan tarzda boshqara olishi ustuvor vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda. Pedagogning kasbiy roli bugungi kunda nafaqat maqsadli bilimlarga ega bo'lishni, balki rivojlangan tahliliy, reflektiv va kommunikativ ko'nikmalarni talab qiladi, bu esa ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlash kompetensiyasini maqsadli shakllantirish zaruratini keltirib chiqaradi. Shu bois mazkur kompetensiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik tizimni yaratish zamonaviy pedagogik ta'limning strategik vazifalaridan biriga aylanmoqda. Pedagog uchun tanqidiy fikrlash qobiliyati quyidagilarda ifodalanadi: uslubiy vositalar va usullarni tanlashga tahliliy yondashuv; savollar berish va ta'lim oluvchilar faolligini rag'batlantirish qobiliyati; pedagogik vaziyatda muammoni aniqlash qobiliyati; muqobil yechimlarni ko'rib chiqishga tayyorlik; rivojlangan reflektiv ko'nikmalarning mavjudligi; ta'lim oluvchilarning mustaqilligini qo'llab-quvvatlash qobiliyati. Tanqidiy fikrlash ko'p darajali tizim bo'lib, uning tarkibiga quyidagi komponentlar kiradi:

- Kognitiv komponent. Mantiqiy operatsiyalar - tahlil, sintez, taqqoslash, tasniflash, faktlarni taqqoslash ko'nikmalarini aks ettiradi. Kognitiv tarkibiy qism ma'lumotlarni tizimlashtirish, asosiy narsani ajratib ko'rsatish, sabab-oqibat aloqalarini o'rnatish va asosli xulosalar chiqarish qobiliyatini ta'minlaydi.

- Baholash-refleksiv komponent. O'z fikrlash harakatlarini anglash, jarayonini tahlil qilish, xatolarni payqash qobiliyatini o'z ichiga oladi. Refleksiya yangi ma'lumotlarni mavjud bilimlar bilan taqqoslash va o'z qarorlarini tuzatish imkonini beradi.

- Kommunikativ komponent. Dalillangan dialog olib borish, suhbatdoshlarni tinglash, o'z pozitsiyasini to'g'ri ifodalash va qarama-qarshi nuqtayi nazarlarni hisobga olish qobiliyatini nazarda tutadi.

- Emotsional-irodaviy komponent. Murakkab qarorlar qabul qilishga tayyorlik, yangi g'oyalarga ochiqlik, noaniqlikka bardosh berish qobiliyati uchun javobgardir. Hissiy moslashuvchanlik konstruktiv tanqidni qabul qilishga yordam beradi.

- Motivatsion komponent. Haqiqatni izlashga ichki ehtiyoj, o'rganilayotgan materialning ma'nosini tushunishga intilish, muammoli vaziyatlarni hal qilishga qiziqishni o'z ichiga oladi.

Tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish uchun faollik, mustaqillik, tahliliy va ijodiy faoliyatni rag'batlantiruvchi metodlar tizimi zarur. Bu usullar ta'lim oluvchilarni yechimlarni mustaqil izlashga, muqobillarni taqqoslashga va farazlarni ilgari surishga undaydi. Axborotni vizual tashkil etish usullari: intellektual xaritalar, grafik modellar. Ular axborot elementlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash, murakkab materialni strukturalash va tahlil qilish imkonini beradi. Munozara metodlari ("asosli rozilik yoki norozilik") konstruktiv bahs olib borish, pozitsiyani dalillash va tanqidni qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi. Refleksiv metodlar: o'z-o'zini baholash, ta'lim oluvchilarga bajarilgan ishning ma'nosini anglashga va o'zlarining aqliy harakatlarini nazorat qilishga yordam beradi.

Ta'lim jarayonning sifati, samaradorligini oshirish turli xil, mavzu va vaziyatga eng mos keladigan topshiriqlarni mohirona tanlash va ulardan foydalanishga, shuningdek, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning butun o'quv jarayonining subyekt-subyekt munosabatlarini faollashtirishga bevosita bog'liq. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish usullarini tanlash turli yo'nalishlarga tegishli bo'lgan o'quv materialining mazmuni va maqsadlaridan kelib chiqadi.

Xorijiy amaliyotda samarali yondashuvlardan biri Toni Byuzenning "xarita intellekti" hamda "muvaffaqiyat formulasi" usulidir. Ular fikrni vizual ifodalash orqali ma'lumotlarni eslab qolish, g'oyalarni yaratish hamda urinish – hodisa – qayta aloqa – tekshirish – tuzatish – muvaffaqiyat orqali natijani bosqichma-bosqich takomillashtirishga yordam beradi. [2]. Tanqidiy fikrlash nafaqat ma'lum bir ko'nikma, balki birgalikda ishlaydigan fikrlash ko'nikmalarining butun bir to'plami bo'lib, tahlil qilish, taqqoslash, dalillash va xulosa chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar tizimini qo'llashni o'z ichiga oladi. Quyidagi usullar alohida qiziqish uyg'otadi:

Mnemojadvallar ma'lumotlarni tizimlashtirish vositasi sifatida ma'lumotlarni vizual shaklga o'tkazish imkonini beradi, tarbiyalanuvchining tahliliy faoliyatini kuchaytiradi va quyidagilarni rivojlantirishga yordam beradi: axborotning asosiy elementlarini ajrata olish; ma'nolarni kodlash va dekodlash ko'nikmalari; mantiqiy o'zaro aloqalarni o'rnatish qobiliyati; refleksiv tahlil.

"Tafakkurning olti shlyapasi" usuli fikrlash operatsiyalarini turli mantiqiy rejimlar bo'yicha taqsimlash imkonini beradi. Har bir "shlyapa" ma'lum bir fikrlash turini ifodalaydi: dalillar bilan ishlash; hissiy baholash; tanqidiy tahlil; ijobiy tomonlarni aniqlash; ijodiy izlanish; fikrlash jarayonini boshqarish. Turli fikrlash uslublari o'rtasida ongli ravishda almashish; subyektiv reaksiyalarni faktlardan ajratish; muammoni kompleks tahlil qilishga yordam beradi:

Morfologik quti usuli o'z pozitsiyasini shakllantirish, uni asoslash va oqibatlarni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi: pozitsiya - tushuntirish (yoki asoslash) - misol - oqibat (yoki hukm)

IMEN (ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi) pedagogik ta'limda fikrlashning tizimlili, qarama-qarshiliklarni tahlil qilish va muammoni yaxlit ko'rish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi: pedagogik vaziyatlarning nostandart yechimlarini izlash; qiyinchiliklarning yashirin sabablarini tahlil qilish; pedagogik qarama-qarshiliklarni aniqlash; masalani yechish variantlarini modellashtirish.

«**Argument sxemasini chizish (vizual xarita)**» metodi ta'lim oluvchilarning argumentatsiyani tahlil qilish jarayonini interaktiv qiladi. Ish jarayonida dalillashning borishini aks ettiruvchi ko'rgazmali sxemalar tuziladi, so'ngra ularning qiyosiy tahlili va muhokamasi o'tkaziladi.

SINKVEYN - savolni chuqurroq tushunishga erishish, ta'lim oluvchilarning berilgan mavzu bo'yicha o'z fikrlarini qisqa va aniq ifodalash qobiliyatini tekshirish vazifasining bajarilishini ifodalaydi.

O'tkazilgan tahlillar pedagoglarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish ularning kasbiy shakllanishining zaruriy sharti ekanligini ta'kidlash imkonini beradi. Mazkur kompetensiyani shakllantirish samaradorligi ta'lim oluvchining real hayotiy vaziyatlar va kelajakdagi kasbiy muammolarni hal qilishga tayyorligini tavsiya etilgan metodikalardan tizimli foydalanish orqali ta'minlanadi. Agar pedagoglarda tanqidiy fikrlash muntazam ravishda rivojlantirilsa, bu ularning ta'lim jarayonini tanqidiy yondashuvga asoslangan tarzda tashkil etishiga imkon yaratadi. Natijada pedagoglar MTT tarbiyalanuvchilarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishga yanada ongli, maqsadli va samarali yo'naltira oladilar. Tanqidiy fikrlaydigan pedagog bolalarning fikrini tekshirish, dalillarni tahlil qilish, savollar berish, muqobil nuqtai nazarlarni ko'rib chiqish va mustaqil xulosa chiqarish jarayonlarini ongli ravishda qo'llab-quvvatlaydi. Bunday yondashuv bolalarda mantiqiy fikrlash, sabab-oqibatni anglash, muammolarni hal qilish, axborotni baholay olish kabi tanqidiy fikrlashning asosiy komponentlarini shakllantiradi. Pedagogning o'zi tanqidiy fikrlashni qanchalik chuqur egallagan bo'lsa, u maktabgacha yoshdagi bolalarda ushbu ko'nikmalarni shakllantirishga shunchalik samarali ta'sir ko'rsatadi. Shu bois tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodlarini pedagogik amaliyotga joriy etish nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki zamonaviy jamiyatda mas'uliyatli, ongli va samarali faoliyat olib boradigan shaxsni tarbiyalashga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Барышева Т. А. Формирование критического мышления студентов педагогического вуза. – Вестник ЮУрГГПУ, 2018. № 6. С. 34–41.
2. Бьюзен Т. Супермышление: как повысить ясность и эффективность мышления, а также общий уровень интеллекта и быстроту мысли. пер. с англ. Е. А. Самсонова. - Минск: Попурри, 2008. 304 с.
3. Горина, А.В. Психолого-педагогическое сопровождение формирования профессиональной компетентности студентов в социальной проектной деятельности. А. В. Горина, П. И. Фролова. - Вестник СибАДИ, 2014. № 5 (39). С. 125–133.
4. Гулямова Г. Н. Совершенствование педагогических технологий развития критического мышления студентов педагогических вузов. *Проблемы современного образования*. – Ташкент, 2023. № 2. С. 112–118.
5. Заир-Бек С. И. Развитие критического мышления на уроке: пособие для учителей общеобразоват. Учреждений. - М.: Просвещение, 2011. 223 с.